

MOY BO`YOQDA DENGIZ MANZARASINI CHIZISH TEXNIKASI VA IVAN AYVAZOVSKIY IJODIDA DENGIZ MANZARA JANRI

Eshimova Shaxzoda

Qarshi davlat universiteti talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14065420>

Annotatsiya. Ushbu maqolada moy bo`yoqda dengiz manzarasi ishlash tartibi, kerakli asboblari va zarur jihozlar bo`yicha malumotlar keltirilgan. Shuningdek, dengiz manzara janrida yorqin ijod qilgan rassom Ivan Konstantinovich Ayvazovskiy ijodi ham keltirilgan.

Abstract. This article provides information on the procedure for working with seascapes in oil paint, the necessary tools and necessary equipment. The work of Ivan Konstantinovich Aivazovsky, who brilliantly created in the genre of seascapes, is also presented

**Kalit so`zlar:** Chizish asboblari, kompozitsiya va eskiz, asosiy ranglar, bo`yoqni quritish

Key words: Drawing tools, composition and sketching, basic colors, drying the paint

Moy bo`yoqda ishlash jarayonida dengiz tasviri bu - to`lqinlar, suvning harakati va dengizning kengligi orqali kuchli estetik va hissiy ifoda vositasi hisoblanadi.

Moy bo`yoqda dengiz manzarasini chizish aniq va puxta rejalashtirishni talab qiladi. Mana, asosiy bosqichlar:

1. Tayyorlanish va chizish asboblari. Moy bo`yoqlar (ko`k, yashil, oq, kulrang, va boshqa zarur ranglar).Tuval yoki yog`och taglik, turli o`lchamdagi cho`tkalar, rasmdan qolgan qoramalar yoki eskizlar.

2. Kompozitsiya va eskiz. Dastlab eng katta shakllarni (masalan, osmon chizig`i va suv maydonini) yengil chiziqlar bilan belgilab olinadi. Asosiy elementlar — osmon, to`lqinlar, qirg`oq yoki qayiq joylashgan qismlarni aniqlanadi.

3. Asosiy ranglarni qo`llash. Osmon uchun ochroq ranglardan foydalanadi. (oq, ko`k, och yashil). Dengiz rangini quyuq ko`k va yashil bilan boshlanadi, chuqurlik berish uchun quyuqroq ranglarga o`tiladi. Ranglarning bir-biriga o`tishini yumshatish uchun cho`tkani ehtiyotkorlik bilan boshqariladi.

4. To`lqin va suvning detallarini chizish. To`lqinlar qirralarida oq rangda detallar qo`shiladi. Suvning tiniq ko`rinishi uchun oq rangni eng yuqori qismida ishlatiladi. Har xil cho`tkalar texnikasidan foydalanib, suvning harakatini



ifodalanadi. Katta to'liqlar uchun quyuk ko'k va yashil, kichik to'liqlar va yengil chayqalishlar uchun oq va och ko'k ranglardan foydalaniladi.

5. Qorong'i va yorqinliklarni qo'shish. Suvdagi akslarni ko'rsatish uchun yorqin va qorong'i ranglar o'rtasida kontrast yaratib, suv yuzasidagi akslarni yanada chuqurroq qilinadi. Quyosh yoki oy aks etgan nuqtalarda eng yorqin ranglarni qo'shiladi.

6. Yakuniy detallar va yakuniy tuzatishlar. Suv yuzasiga so'nggi nuqtalar, shuningdek, suvdagi shaffoflikni yanada kuchaytiradigan detallarni qo'shiladi. Agar osmon yoki bulutlar bo'lsa, ular bilan kontrastli rang ishlanadi.

7. Bo'yoqni quritish. Moy bo'yoq uzoq vaqt quriydi, shuning uchun chizmani uzoq vaqt ochiq havoda yoki maxsus xonada saqlanadi.

Ushbu qadamlar dengiz manzarasini ko'proq haqiqiy ko'rinishda aks ettirishga yordam beradi. Rasm chizishda to'qimalar va chuqurlik berishga alohida e'tibor qaratish kerak.

Ushbu yo'nalishda ko'plab mashhur rassomlar ham ijod qilishgan. Shulardan biri Ivan Konstantinovich Ayvazovskiy hisoblanadi. I.K.Ayvazovskiy o'z asarlarida dengizning turli holatlarini – shiddatli to'liqlar, tinch suvlari va quyosh nuri bilan yoritilgan sahnalarni tasvirlab, tabiatning go'zalligini va insonning unga bo'lgan munosabatini ko'rsatgan. Dengiz tasviri rassom uchun nafaqat manzara chizish balki tabiat va uning kuch-qudratini chuqurroq anglash imkoniyatini yaratgan. Bu asarlar bugungi kunda ham insonni dengizning buyukligi va sirli jozibasi bilan bog'laydi. I.K.Ayvazovskiy dengiz tasvirlarini chizishda mohir rassom hisoblanib, san'at tarixida alohida o'rin tutadi. I.K.Ayvazovskiy dengizni o'ziga xos uslubda aks ettirgan va dengizning go'zalligini o'z davriga xos texnika va uslublar bilan ifodalagan.

Ivan Ayvazovsky — rus rassomi bo'lib, eng mashhur dengiz manzaralarini chizgan rassomlardan biridir. U XIX asrda yashab ijod qilgan va asosan dengiz mavzusi bilan tanilgan. Uning asarlarida suvning tiniqligi, to'liqlar harakati va tabiatning go'zalligini o'ziga xos uslubda tasvirlagan.

Ayvazovskiyning asarlari orasida “To'qqizinchi val”, “Qayiqdagi odamlar”, “Chinor bog'ida tong” va “Dengiz bo'yidagi tong” kabi mashhur kartinalar bor. Ayniqsa, “To'qqizinchi val” asari katta shuhrat qozongan. Unda Ayvazovskiy to'liqlarning ulug'vorligini, dengizchilarning himoyasizligini ajoyib tarzda aks ettirgan.





1-rasm. "To`qqizinchi val". 1850-yil. 221x332 sm. Xolst, moy bo`yoq

Ayvazovskiy dengiz va suvni shunchalik jonli va haqiqiy ko'rinishda tasvirlaganki, hatto uni o'sha davrdagi eng kuchli dengiz manzarachi rassomi sifatida tan olishgan.

Dengiz manzara janrida rassom suvning qudratini, to'lqinlarning dinamikasini va dengizning o'ziga xos go'zalligini aks ettirishga intilgan. Bu janrda har bir rassom dengizni o'z uslubida tasvirlab, uni kuchli va hayajonli yoki tinch va osoyishta ko'rinishda namoyon qilishga intilgan. Ayvazovskiyning jonli dengiz manzaralari orqali dengizning kuchini yodda qolarli qilib aks ettirgan. Ular nafaqat dengiz manzaralarini yaratibgina qolmay, balki odamlarning tabiatga bo'lgan hurmat va hayrat tuyg'usini ham san'at orqali ifodalashga muvaffaq bo'lgan.

References:

1. James Taylor, "Marine Painting: Images of the Sea"
2. Mike Brown, Barbara Humberstone, "Seascapes: Shaped by the Sea in Art and Literature"
3. Victoria Charles, "Ivan Aivazovsky and the Russian Painters of Water"

